

28-dekabrda Turkiyaga tashrif buyurayotgan fuqarolar uchun yangilangan talablar kuchga kirmoqda

2020 26 Dekabr

Turkiyaga parvozlarni rejalashtirayotgan yo'lovchilar uchun muhim ma'lumot!

Hurmatli yo'lovchilar!

1. Turkiya Sog'liqni saqlash Vazirligi chet eldan Turkiyaga tashrif buyurayotgan aviayo'lovchilar 28-dekabrda boshlab, COVID-19 uchun PZR SARS-COV-2 usuli bilan, Turkiya chegarasini kesib o'tishdan kamida 72 soat oldin topshirilgan test natijalari ma'lumotnomasini majburiy ravishda taqdim etishlari lozimligini e'lon qildi.
2. PZR SARS-COV-2ga manfiy natijali PZR-testni taqdim etmagan yo'lovchilar, chegarani kesib o'tishda ko'rsatilgan (uy, mehmonxona va boshqa) manzil bo'yicha 7 kunlik karantinga olinadi. Turkiyadagi yashash manzilini ko'rsatmagan shaxslar, Turkiya sog'liqni saqlash Vazirligi tomonidan ajratilgan joylarga joylashtiriladi.
3. 7 kunlik karantindan so'ng SARS-COV-2ga PZR-testi musbat natija bergan yo'lovchilar Turkiya Sog'liqni saqlash Vazirligining COVID-19 amaldagi talablari asosida davolanadilar.
4. Mazkur choralar 2021-yilning 1-martiga qadar amal qilladi.

<https://mfa.uz/ru/press/news/2020/vnimanuyu-grazhdan-uzbekistana-planiruyuschi-posetit-turciyu---29044>